

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 5, 31 Май**

**HISTORIOGRAPHY OF THE MATERIAL CULTURE OF THE
KARAKALPAK PEOPLE.**

Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich,
a teacher of the Department of History and Philology of the International
University of Asia
E- mail : sferuz1011@gmail.com
Tel : +998936857755

Abstract: The people of Karakalpak have a special place among the peoples of the world with their rich culture since ancient times. The process of Karakalpak cultural learning has developed widely since the 20th century.

Abstract: Qoraqalpoq xalqi qadimdan o'zining boy madaniyati bilan jahon xalqlari orasida alohida o'ringa ega bo'lib kelgan Qoraqalpoqlar yog'och o'yumakorligi, teriga ishlov berish, kashtachilik va boshqa bir qancha sohalarda yutuqlarga erishgan va o'z uslubini yaratgan. Qoraqalpoq madaniy o'rganish jarayoni XX asrdan keng rivoj topdi.

Key words: Karakalpak people Ethnology, historiography, ethnological studies, Zarafshan oasis, clan, tribe, nation

Kalit so'zlar: Qoraqalpoq xalqi Etnologiya, tarixshunoslik, etnologiyashunoslik, Zarafshon vohasi, urug‘, qabila, millat.

**ИСТОРИОГРАФИЯ МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ
КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДА.**

Аннотация: Народ Каракалпакии с древнейших времен занимает особое место среди народов мира благодаря своей богатой культуре. Процесс изучения каракалпакской культуры получил широкое развитие с 20 века.

Ключевые слова: каракалпакский народ Этнология, историография, этнологические исследования, Заравшанский оазис, род, племя, народность.

Ma'lumki, Rus imperiyasi hukumati tomonidan O'rta Osiyo hududi bosib olinganidan keyin o'lkani o'rganish uchun bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bu ishlarning maqsadi, albatta, o'lka tarixini bevosita o'rganish orqali aholini boshqarishni osonlashtirish va Rossiya ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarini

sotish uchun qulay bozor hududini topish edi. Bu maqsadni amalga oshirish yo‘lida qoraqalpoq xalqini ham turli jihatdan o‘rganish ishlari boshlandi.

1873-yilda qoraqalpoq xalqi Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olindi. Xalqning keyingi taqdiri ham endi imperiya taqdiriga bog‘liq bo‘lib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan qoraqalpoqlar ham rus tadqiqotchilari tomonidan etnografik o‘rganish obyektiga aylandi. Ammo bu davrda sezilarli tadqiqot ishlari amalga oshirilgani yo‘q.

M.Tleumuratovning¹ yozishicha, bu davrda qoraqalpoqlar mahalliy madaniyatini o‘rganishda rus tadqiqotchilaridan A.Kunning bir nechta asarlari mavjud bo‘lib, u O‘rtal Osiyoning to‘rt shahri, shu jumladan, Xorazm vohasi hududi, Qo‘ng‘iroq, Xo‘jayli, Chimboy, Nukus va boshqa joylariga tashrif buyuradi.

U qoraqalpoqlarining yashash tarzi, xo‘jaligi urf-odatlari haqida ham asarlarida to‘xtalib o‘tadi. Umuman olganda Rus imperiyasi davrida keng ko‘lamda ishlar deyarli olib borilmagan.

Ikkinchi davr bu Sovet davri tadqiqotlari bo‘lib, bu davrda hududga doir tarixiy hujjatlar, etnografik materiallar yig‘ish va o‘lkani ilmiy o‘rganish bilan boshlanadi. XX asrning 20-yillarida avtonom viloyatda rus tadqiqotchi, arxeolog va etnograflari tomonidan turli ekspeditsiyalar uyushtirildi. Shu davrdan boshlab bu xalqni etnografik o‘rganishga ham asos solindi.

Ilk tadqiqotchilardan biri SSSR Fanlar akademiyasi Etnografiya instituti xodimi G.Shuls Qoraqalpog‘iston hududida dala tadqiqotlarini o‘tkazib aholi soni, ularning turmush tarzi, xo‘jalik hayoti haqida ma’lumotlar to‘plab nashr ettiradi². Shuningdek, 1926-1930- yillarda qoraqalpoq xalqini o‘rganish uchun bir nechta etnografik ekspeditsiyalar uyushtiriladi va bu ishga S.Y.Malov rahbarlik qiladi.

Ekspeditsiya tarkibida mahalliy tarixchilardan K.Ayimbetov, E.Ergaliyev, K.Ubaydullayev, T.Bekimbetovlar ham bor edi. Ushbu ekspeditsiya yutuqlari zargarlik buyumlari, qoraqalpoq ayollari liboslari namunalari, musiqa asboblari, hunarmandchilik namunalari va boshqa etnografik topilmalardan iborat bo‘ldi.

A.X.Doniyorovning ta’kidlashicha³, XX asrning 30-yillari o‘rtalaridan boshlab qoraqalpoqlar tarixini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari ancha

¹ Тлеумуратов М. “Истоки культурных связей каракалпаков с соседними народами” – Нукус: Каракалпакстан, 1986. – С. 6-7.

² Шульц Г. Каракалпаки дельты Амудары // Этнограф – исследователь, 1928. №2–3. – С. 35.

³ Doniyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi, – Т, 2020. – В. 325.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

kengaydi. Xususan, 1938-1941-yillarda faoliyat yuritgan S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi alohida e'tiborga loyiqidir. Ushbu ekspeditsiya davomida o'zbek, turkman va qoraqalpoq xalqi etnologiyasiga bog'liq ko'plab etnografik ma'lumotlar ham to'plab boriladi.

Tadqiqot tarkibida bo'lган T.A.Jdanko, K.L.Zadixina, G.P.Snesarov va mahalliy tarixchilardan I.M.Jabborov, S.Kamolov kabi tadqiqotchilar ham bo'lib, ular keyinchalik o'z asarlarida o'rgangan xalqlari turmush tarzi, an'anaviy xo'jaligi, boy madaniyati tog'risida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadilar. Orol bo'yi qoraqalpoqlarining hunarmandchilik an'analari to'g'risida XIX asr oxiri XX asr boshlarida etnografik ma'lumotlar juda kam bo'lган.

Shu bois ham S.P.Tolstov va uning hamrohligidagi tadqiqotchilar oldida butun bir qoraqalpoq xalqining boy tarixini qayta jondorish masalasi turardi. Etnografik tadqiqotning dala tadqiqoti usulidan foydalanib yilning to'rt faslida ham Orolbo'yi qoraqalpoqlari orasida yashagan T.A.Jdanko⁴, S.Kamolovlarning mashaqqatli mehnatlari evaziga biz XX asr qoraqalpoq xalqi etnografiyasini jumladan, xalq moddiy madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Hanuzgacha bu tadqiqotchilarning izlanishlari o'zining ilmiyligini yo'qotgani yo'q. Qoraqalpoq xalqi etnologiyasini o'rganishda tadqiqotchi T.A.Jdankoning bir qancha fundamental asarlari beqiyos manba bo'lib, asarda tadqiqotchi bevosita besh yil mobaynida o'z ko'zi bilan ko'rganlarini ro'yi-rost qog'ozga tushuradi.

1945-1959-yillarda T.A.Jdanko qoraqalpoq etnografik otryadiga rahbarlik qiladi. 1964-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Tatyana Jdanko Qoraqalpog'iston tarixi va etnografiyasi bo'yicha bir qator ilmiy ishlar yozgan. Uning shogirdlari orasida O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Sobir Kamolov ham bor edi. U bilan birligida 1980-yil Toshkentda "Этнография Каракалпаков. XIX-начало XX века" rus tilidagi asarini nashr ettiradi.

Asar 5 bobdan iborat bo'lib, birinchi bobida qoraqalpoq aholisi punktlari va turar joylari haqida, ikkinchi bobida qoraqalpoq milliy liboslar tasnifi, uchinchi bobida qoraqalpoq milliy taomlari haqida, to'rtinchi bobida qoraqalpoq xalq

⁴ Tatyana Aleksandrovna Jdanko – sovet va rus etnografi, tarix fanlari doktori, fan va texnika bo'yicha SSSR Davlat mukofoti laureati Tatyana Aleksandrovna Jdanko 1909-yil 19-iyulda Ukrainada harbiylar oilasida tug'ilgan. 1927-yilda u Moskvaga ko'chib o'tadi. U 1930-yilda 1-Moskva davlat universitetining tarixiy-etnologik (tarixiy-falsafiy) fakultetining etnografik bo'limini tugatadi. 1931-1935-yillarda u O'zbekiston SSR Markaziy davlat muzeyining Samarqanddagi bo'limini boshqargan. 1944-yilda u SSSR Fanlar akademiyasi Etnografiya institutining aspiranturasiga o'qishga kiradi. Uning ilmiy maslahatchisi S.P.Tolstov edi. 1947-yilda u dissertatsiyasini himoya qildi va institutda O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari etnografiyasini bo'limida ishini davom ettiradi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

hunarmandchilik turlari va an'analari xususida va oxirgi beshinchchi bobida milliy marosim va e'tiqot to'g'risida fikr yuritiladi.

Asarning to'rtinchi bobi bevosa Hunarmandchilik an'analari bilan bog'liq bo'lib unda Hunarmandchilikning temirchilik, temir eritish va quyish, zargarlik, yog'och o'ymakorligi kabi turlariga alohida to'xtalib o'tadi.

Jumladan, o'sha davrda Amudaryo bo'limida qoraqalpoqlarning 12,6 %i Hunarmandchilikning uy Hunarmandchiligi bilan shug'ullanadilar. Xususan, Dala tadqiqotlari natijasida T.A.Jdanko qoraqalpoq Hunarmandchiligi bevosa qo'shni xalqlar qozoqlar, turkmanlar, xivaliklar an'analari bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tadi. Uning ma'lumot berishicha, XX asr boshlarida qoraqalpoq xalqi asosan Hunarmandchilikning uy Hunarmadchiligi bilan shug'ullanadi. Ularning tarkibida duradgor, zargar, temirchi, tikuvchi, egar yasovchi kabilar bo'lib ular ham doimiy ravishda ushbu ish bilan shug'ullanuvchi shaxslar bo'lishmagan ya'ni Hunarmandchilikning ushbu turlari bilan savdogarlar, cho'ponlar, baliqchilar, qishloq xo'jaligi vakillari shug'ullanib, asosan to'rt oy qish faslida shug'ullanadilar.⁵

Shuningdek asarda tadqiqotchi Hunarmandlar asosan Chimboy, Qo'ng'irot, Xo'jayli shaharlarida istiqomat qilishini va yasagan buyumlarini Urganch, Toshkent, Orenburg va hatto Nijniy Novgorod shaharlariga olib borib sotib kelishlari va o'zlarining "Makariya" deb nomlangan yarmarkalari borligini aytib o'tadi.⁶ Bu ma'lumotlar esa qoraqalpoq xalqining qadimdan Hunarmandchilik bilan shug'ullanganligini isbotidir. Shuningdek asarda boshqa kitoblarda uchramaydigan qiziq ma'lumotlarni ham uchratishingiz mumkin.

Temirchilik xususida so'z yuritilar ekan "Qoraqalpoq temirchilarining odatda o'ziga xos xususiyatlari bor edi. Aloida xonalardagi ustaxonalar soni kam bo'lgan. Ammo ba'zilari ustaxonasi bo'limgan temirchilar, ochiq maydonda ishladilar osmon, uyning yonida va sovuq havoning boshlanishi bilan ular asbob-uskulnular bilan uyga kirib ketishadi yoki ishslashni to'xtatishadi. Bunday ustalar juda kam buyurtma olishgan, chunki asosiy buyurtmalar qishda yoki kuzda kelgan. Mijozlar zarur qishloq xo'jaligi anjomlarini bahorga tayyorlashga oldindan harakat qilishgan. Shahar temirchilarining ustaxonasi odatda bozorda joylashgan. Har bir ustaxonada

⁵ Жданко Т.А., Камалов С.К. Этнография Каракалпаков. XIX – начало XX века (Материалы и Исследования). – Т.: ЎзССР Фан, 1980. – С. 145.

⁶ Жданко Т.А., Камалов С.К. Этнография Каракалпаков. XIX–начало XX века (Материалы и Исследования) – Т.: ЎзССР Фан. 1980. – С. 147.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

temirchi yoki uning shogirdi ishlagan degan fikrlarni keltirib qoraqalpoq hunarmandchiligi haqida mufassil ma'lumot beradi.

XX asrda Qo'ng'iroq, Chimboy, Xo'jayli, Mang'it, Zangishovul, Shonshiyovul kabi shaharlarning ustaxonalari bor edi. Ishchilar soni 3-4 kishiga yetardi. Temirchi esa "dukan" deb nomlangan.⁷ Tadqiqotchining bunchalar aniq ma'lumot berishiga sabab 1956-yilda Kegeyli shahrida yashovchi 75 yoshli temirchilar sulolasining 18-avlodni Abdusamat Saimbetov bilan shaxsan uchrashib jonli muloqotni amalga oshirganidadir.

Temirchilar asosan ot jabduqlari uchun metall buyumlarga buyurtmalar olishardi: uzang (zangi), bit (sulik), taqa (taqa), temir bog'lamlar (kisen), turli zanjirlar (ayansok va boshqalar), temir qoziqlar (tamirkazik) va boshqalar yasashganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Bundan tashqari temirchilik haqida I.M.Jabborov ham o'zining "Ремесло узбеков южного Хорезма в конце XIX начале XX в⁸." deb nomlangan tarixiy-etnografik ocherkida to'xtalib o'tib bu davrda nafaqat Xorazm hududi uchun balki butun O'zbekiston hududida yangi soha cho'yan quyish sohasi paydo bo'lganini va bu soha bilan ancha yillar temirchilar shug'ullanganini ta'kidlab o'tadi.

T.A.Jdanko zargarlik haqida ham so'z yuritar ekan bu davrda qoraqalpoq xalq hunarmandlari orasida an'anaviy zargarlik uslublari tez yo'qolib borayotgani, zargarlar endi faqat ma'lum bir buyurtma asosidagina ishlamoqdalar deydi. Umuman olganda bu davr qoraqalpoq xalqining tarixini o'rganishda ushbu olimaning xizmatlari beqiyosdir.

Mahalliy tarixchilardan S.K.Kamalov ham qoraqalpoqlar tarixi, etnografiyasi va madaniyati bo'yicha yirik mutaxassis hisoblanadi. U qoraqalpoqlarning Markaziy Osioning boshqa xalqlari va Rossiya bilan munosabatlarini ham o'rgangan va 300 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifidir. U 1968-yilda "Каракалпаки в XVIII – XIX веках"⁹ va 1988-yilda "Из истории взаимоотношений каракалпаков с другими народами Средней Азии и Казахстана в XVIII – начале XIX в." asarlarini chop ettiradi.

⁷ Жданко Т.А., Камалов С.К. Этнография Каракалпаков. XIX – начало XX века (Материалы и Исследования). – Т.: ЎзССР Фан, 1980. – С. 150.

⁸ Джаббаров И.М. Ремесло узбеков южного Хорезма в конце XIX – начале XX в. (Историко –этнографический очерк). – Т.,1971. – С. 89.

⁹ Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII – XIX веках (К истории взаимоотношений с Россией и среднеазиатскими ханствами). – Т.: ЎзССР Фан, 1968. – 358.c

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

XX asrning 70 - 80- yillarida qorqalpoq xalqi tarixi va etnografiyasiga oid bir qancha ilmiy asarlar e'lon qilinadi. Ularning ichida M.K.Nurmuhamedov, T.A.Jdanko va S.K.Kamolovlar hammuallifligida 1971-yilda Toshkentda "Fan" nashryotida olti bobdan iborat "Каракалпаки: краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней" (Qoraqalpoqlar: qadimgi zamondan hozirgi kungacha bo'lgan tarixning qisqacha ko'rinishi) nomli asarni chop ettirishadi.

Asarning kirish va I bob "Qoraqalpoqlarning kelib chiqishi" qismi tarix fanlari doktori, professor T.A. Jdanko tomonidan yozilgan; II bob "XVIII-XIX asrlarda qoraqalpoqlar", III bob "XIX-XX asr boshlarida qoraqalpoqlar" va IV bob "Sovet davridagi qoraqalpoqlar" tarix fanlari doktori S.K.Kamolov; V bob "Madaniy inqilobgacha bo'lgan davrda qoraqalpoqlar", VI bob "Sovet Qoraqalpog'istoni madaniyati" va xulosa qismi O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, filologiya fanlari doktori, professor M.K.Nurmuhamedov tomonidan yozilgan.

Asar qoraqalpoq xalqining etnografik siyosiy tarixiga bag'ishlangan. Asarda qoraqalpoq hunarmandchiliga oid ma'lumotlar jumladan, qoraqalpoq ayollarining rangli toshlar, nishonlar va naqshlar bilan bezatilgan dubulg'a shaklidagi bosh kiyimi - "saukele" nafaqat XX asrda balki qadimdan xalq hunarmandchiligining go'zal na'munasi sifatida e'tirof etiladi.

Bundan tashqari hunarmandchilikning kashtachilik sohasidagi ish na'munalari bilan tanishgan olimlar bunday na'munalarni O'rta Osiyoning boshqa xalq kashtachiligidan o'zining ranglar uyg'unligi bilan ajralib turishi va qizil rangdan keng foydalanganliklarini va kashtachilik asosan bezak uchun ishlatilganini aytib o'tadilar. Shuningdek, "qizil kimeshek" (bosh kiyimning bir turi), "ko'k ko'ylak" (ko'k libos), "aq jekde" kabi kashtachilik bilan bezatilgan kiyim turlarini sanab o'tadilar. Bu davrda zargarlar asosan sirg'alar, bilakuzuklar, uzuklar, o'ziga xos ko'krak taqinchoqlari, bolalar bosh kiyimlarini yasaydilar.

Yog'och o'ymakorligi ham yaxshi rivojlangan bo'lib ustalar buyurtma asosida eshiklar, uy-ro'zg'or buyumlari, ajoyib bezaklar ishlab qoraqalpoq amaliy san'atiga katta hissa qo'shadilar.¹⁰ Asarda ushbu jarayonlar batafsil keltiriladi.

A. Allamuratov¹¹ qoraqalpoq milliy kashtachilik san'atini ilmiy jihatdan o'rganib 1977-yilda "Художественные особенности каракалпакской народный

¹⁰ Нурмухамедов М.К., Т.А. Жданко, С. К. Камалов "Каракалпаки: краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней" – Т.: ЎзССР Фан, 1971. – С. 71-72.

¹¹ Алламуратов А. Художественные особенности каракалпакской народный вышивки. Автореф. дисс.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

вышивки” nomli mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi va shu nomada aftoreferat chop ettiradi. U kashtachilik tarixi uning aynan Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan kashtachilik sohasidagi turli naqshlar ularning qoraqalpoq hunarmandlarigagina xos tomonlarini olib berishga harakat qiladi.

Mustaqillik yillarda Qorqalpog‘iston tarixini sovet mafkurasidan xoli bo‘lgan tarzda yoritish uchun imkoniyat tug‘ildi.

1991-yil O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston filiali Qoraqalpog‘iston bo‘limi nomini oladi va uning qoshida etnografiya instituti ham tashkil etildi. Ushbu davrda qoraqalpoq xalqining qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish, hunarmandchilik va boshqa sohalarning ahvoli hamda mustaqillikdan keyingi o‘zgarishlarga bag‘ishlangan dissertatsiyalar himoya qilindi.

Jumladan, B.B.Utemuratovning¹² ilmiy izlanishlarida dehqon va fermer xo‘jaligi masalalarini, A.K.Saribayevning tadqiqotlarida paxta tozalash va hunarmandchilikning bir nechta sohalarini xususan, to‘qimachilik masalalarini tahlil qildi. Ushbu tadqiqotlar qoraqalpoq xalqining XX asr oxiridagi iqtisodiy holatini ma’lum bir darajada olib bera oldi deyishimiz mumkin.

Mavzuning tarixshunoslik tahliliga ko‘ra, hunarmandchilik sohasiga oid ilmiy bilimlar turli tarixiy davrlarda o‘ziga xos tarzda bosqichma-bosqich rivojlanib borgan.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan qoraqalpoq xalqi xo‘jaligida hunarmandchilik tarmog‘i qadimdan muhim o‘rin tutgan. XX asrda ham ushbu soha o‘zining qadimiy an‘analarini ma’lum qismini saqlab qoldi. Garchi qoraqalpoq xalqining asosiy xo‘jaligi baliqchilik va chorvachilik bo‘lsada hunarmandchilik ham ular hayotida yaxshigina iz qoldirgan soha hisoblanadi.

XX asrda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan kashtachilik, tikuvchilik, zargarlik, temirchilik, yurta yasash, yog‘och o‘ymakorligi, teriga ishlov berish kabi hunarmandchilik turlari murakkab siyosiy vaziyatga qaramay rivojlanishda davom etdi.

Kashtachilik - qadimdan qoraqalpoqlar geometrik naqshlar asosida igna yoki ipak ipi yordamida paxtadan qo‘lda tikilgan matoga mayda hoch shaklida kashtalar tikishgan. Ushbu usul *shiris-nagis* deb atalgan.

канд.истор.наук. – Нукус, 1977. – С. 19.

¹² Утемуратов Б.Б. Дехканские (фермерские) хозяйства Республики Каракалпакстан: история возрождения и развития(1917–1996 гг.). Афтореф. дис.... канд. ист. Наук. – Нукус, 1977. – 240.c

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Tikuvchining nafis bezaklari turfa xilligiga movutga halqasimon zanjir kashtaning choki tushirilishi orqali erishilgan. Mahsulotning chekkalari qo‘lda to‘qilgan tasma bilan, shuningdek, o‘ralgan ipakdan qilingan popuk bilan bezatilgan.

Asosan, ayollar libosi, shu jumladan, bosh kiyim, libos, kapyushonli ko‘krak fartugi, keng choponlar kashta bilan bezatilgan.

Bir necha yillar davomida o‘zi tomonidan yaratilgan kelinlik sarposi, o‘zining uzun tunikasi (*kok-koylek*), ko‘krakkacha tushib turadigan bosh kiyimi (*kizil-kiymishek*), “*dubulg‘a*” kelin toji (*saukele*) larida aks etgan kashtachilik durdonalari bilan alohida ajralib turadi.

To‘y uchun kelin chopon va po‘stin uchun yengchalar, libos va keng choponlar uchun yoqalar, shuningdek, qaynona uchun sovg‘alar (*keng chopon-ak jegde*) va kuyov uchun (*chopona va po‘stin uchun tumorlar, choy uchun bel qopchasi*), mayda uy ro‘zg‘or buyumlari (*choynak ushlagich, yurta uchun tumorlar*) va boshqalar uchun kashtalar to‘qigan.¹³

Qadimgi qoraqalpoq kashtasi o‘zida turli xil iplardan iborat va to‘q-qizil rang nisbatan ko‘p bo‘lgan, mayda naqsh elementlaridan iborat bo‘lgan. Turli xil ranglar mutanosibligi ora-sira joylashgan qizil, jigarrang, pista-yashil, tillaranglarning uyg‘unlashuvi orqali erishilgan.¹⁴

Qoraqalpoq bezaklari kosmogon belgilardan: xoch va uyurma rozetka (*quyosh turishi, dunyo tomonlari*), zigzag (*samo suvi*), romb (*unumdorlik*)lardan tashkil topgan edi. Alohida farovonlikka eltadigan naqshlar sifatida: qo‘y shoxi, qurbaqalar, g‘oz bo‘yni, chayon dumi, qarg‘a changali, qush tili, o‘simgiliklar urug‘i va gullar hisoblangan. Shuningdek, zargarlik buyumlari, asbob-uskunalar va ovchilik qurollari ham qoraqalpoq kashtachiligidagi uchragan.

Tadqiqotchilar qoraqalpoq badiiy hunarmandchiligidagi ornamental naqshlarning bir qancha asosiy guruhlarini ajratib ko‘rsatadilar. Masalan, A. Allamuratov¹⁵ kashtachilik bezaklarini 4 ta asosiy guruhga ajratadi: *geometrik, zoomorf, o‘simgilik, mavzuli* motivlar.

Teriga ishlov berish - Qoraqalpog‘istonda turli usullarda tayyorlangan charm mahsulotlaridan keng foydalanilgan. Teriga naqsh bosish uzangi ostidagi astarda

¹³ Алламуратов, А. Каракалпакская народная вышивка. – Нукус: “Каракалпакстан”, 1977. – С. 45-46.

¹⁴ Жданко Т.А. Народное орнаментальное искусство каракалпаков / Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т.III. Материалы и исследования по этнографии каракалпаков. – М., 1958. – С. 165-169.

¹⁵ Алламуратов, А. Каракалпакская народная вышивка. – Нукус: “Каракалпакстан”, 1977. – С. 45-46.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

(*tebengi*)da yorqin namoyon bo‘lgan. Ular ma’lum shaklda bosib chiqilib, kichik qolip bilan ishlov berilgan yoki o‘yilgan. Suyak qadagan, bosma naqshli teridan (*ak-basli-er*) tikilgan qadimgi egarlar ajoyib buyum hisoblangan.

Teri bo‘ylab kashta ham tikilgan, masalan: ipak- egar kamarlarini (*jipek-jona*)ni bezatishda ishlatilgan, mis simlar-choynaklar (*shini-kap*), riyola g‘iloflari, oyoq kiyimlar (*zerli-geuish*) va hok.ni bezatishda foydalanilgan. Huddi shunday amaliyot ko‘pincha uzun trapezoid shakldagi un, yorma, qovurilgan tariqni saqlashga mo‘ljallangan qoplarda qo‘llanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sayfutdinov, F. (2024). HISTORIOGRAPHY OF INFORMATION ABOUT THE POPULATION OF THE ZARAFSHAN OASIS.(20TH CENTURY). *Modern Science and Research*, 3(2), 911-914.

2. Sayfutdinov, F. (2023). ILLUMINATION OF KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOGRAPHIC STUDIES. *Modern Science and Research*, 2(12), 910–917. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27281>

3. Ilniyoz o‘g‘li, S. F. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1-5.

4. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich. (2023). STUDY OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOLOGICAL SCIENTIFIC WORKS HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 61–68. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-11>

5. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o‘g‘li. (2023). XIX ASRDA XONLIK LARNING O‘ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 111–114. Retrieved from <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>

6. Sayfutdinov , F. (2024). ETHNIC COMPOSITION OF THE ZARAFSHAN OASIS (2ND HALF OF THE 20TH CENTURY). *Modern Science and Research*, 3(1), 577–581. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28335>

7. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich. (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 5, 31 Май**

KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>

8. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLA TUSHUNCHASINING VUJUDGA KELISHI HAQIDA.

9. Shokir o'g'li, S. U. (2024). MIRZO SIROJ HAKIM VA UNING MEROSI.

10. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.

11. Sadullayev, U. (2024). THE CONCEPT OF JADIDISM AND ITS ESSENCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 631–636. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30324>

12. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.

13. Sadullayev , U. (2024). MIRZA SIROJ HAKIM AND HIS LEGACY. *Modern Science and Research*, 3(2), 902–910. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29502>

14. Бобохусенов, А. (2024). ИСТОРИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ БУХАРСКОГО ОАЗИСА. СОВРЕМЕННАЯ НАУКА И ИССЛЕДОВАНИЯ, 3(2), 634–640. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10667247>

15. Бобохусенов, А., и Ганиев, Х. (2024). ПРОБЛЕМЫ ПРОИСХОЖДЕНИЯ САКСКОЙ АРХЕОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. СОВРЕМЕННАЯ НАУКА И ИССЛЕДОВАНИЯ, 3(2), 641–645. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10667306>

16. Akmal , B. (2024). THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL. *Modern Science and Research*, 3(1), 694–698. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28381>

17. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>

18. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>

19. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>

20. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>

21. Баходировна , X. III. . (2024). Из Истории Изучения Пословиц И Поговорок. *Miasto Przyszłości*, 46, 513–520. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2892>

22. Xasanova, III. (2024). <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 425–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>

23. Xasanova, S. (2024). DIFFERENCE BETWEEN PROVERB AND SAYING. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 140–147. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10467418>

24. Xasanova, S., & murodova, D. (2023). REPRESENTATION OF THE SYSTEMIC RELATIONS OF RUSSIAN VOCABULARY IN PROVERBS AND SAYINGS. *Modern Science and Research*, 2(10), 276–280. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24346>

25. Xasanova, S. (2023). USING EXPRESSIVE VOCABULARY IN RUSSIAN PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(10), 403–408. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25248>

26. Bobojonova , D.. (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. *Modern Science and Research*, 3(1), 687–693. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28380>

More Citation Formats

27. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). *Modern Science and Research*, 3(2), 739–746. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29461>. More Citation Formats

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

28. Okhunjonovna, B. D. (2024). Analysis of Folk Proverbs Based on Medicine. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 125-131.
29. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUGOTIT TURK" DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
30. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). KHOJA ABDULKHOLIQ GIJDUVANI. *Modern Science and Research*, 3(2), 87–93. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30711>
31. Toshpo'latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS OF ETHNOLOGIES OF BUKHARA. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004–1011. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29523>
32. Toshpo'latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS. *Modern Science and Research*, 3(2), 500–507. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29386>
33. Toshpo'latova, S. . (2024). RELIGIOUS ANTHROPOLOGY. *Modern Science and Research*, 3(1), 504–510. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28281>
34. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). M. S. ANDREYEV'S WAY OF LIFE. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655–659. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2280>
35. Srojeva, G. (2024). THE CANADIAN ECONOMY DURING THE GLOBAL ECONOMIC CRISIS. *Modern Science and Research*, 3(2), 57–63. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30678>
36. Vahobovna, S. G. . (2024). Role of Preschool Educational Institutions in Education of a Perfect Person. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 208–214. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2703>
37. Vahobovna, S. G. (2023). QUYI ZARAFSHON VOHASI TURIZM IMKONIYATLARI.
38. Srojeva, G. . (2024). STRENGTHENING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF PRESCHOOL EDUCATION AND TRAINING INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 673–681. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29450>
39. Srojeva, G. (2024). INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 1041–1050. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29547>